

## New Day in Medicine Новый День в Медицине NDM



# TIBBIYOTDA YANGI KUN

Ilmiy referativ, marifiy-ma'naviy jurnal







AVICENNA-MED.UZ





9 (83) 2025

## Сопредседатели редакционной коллегии:

#### Ш. Ж. ТЕШАЕВ, А. Ш. РЕВИШВИЛИ

Ред. коллегия:

м.и. абдуллаев

А.А. АБДУМАЖИДОВ

Р.Б. АБДУЛЛАЕВ

Л.М. АБДУЛЛАЕВА А.Ш. АБДУМАЖИДОВ

М.А. АБДУЛЛАЕВА

Х.А. АБДУМАДЖИДОВ

х.а. аьдумаджидоБ.З. АБДУСАМАТОВ

М.М. АКБАРОВ

Х.А. АКИЛОВ

A.A. AKHJIOI

М.М. АЛИЕВ

С.Ж. АМИНОВ

Ш.Э. АМОНОВ

Ш.М. АХМЕДОВ

Ю.М. АХМЕДОВ С.М. АХМЕЛОВА

С.М. АЛМЕДОВ

Т.А. АСКАРОВ

М.А. АРТИКОВА

Ж.Б. БЕКНАЗАРОВ (главный редактор)

Е.А. БЕРДИЕВ

Б.Т. БУЗРУКОВ

Р.К. ДАДАБАЕВА

М.Н. ДАМИНОВА

К.А. ЛЕХКОНОВ

Э.С. ДЖУМАБАЕВ

А.А. ДЖАЛИЛОВ

н н золотова

А.Ш. ИНОЯТОВ

С. ИНДАМИНОВ

А.И. ИСКАНДАРОВ

А.С. ИЛЬЯСОВ

А.С. ИЛЬЯСОІ

Э.Э. КОБИЛОВ

A.M. MAHHAHOB

Д.М. МУСАЕВА

Т.С. МУСАЕВ

М.Р. МИРЗОЕВА

Ф.Г. НАЗИРОВ

Н.А. НУРАЛИЕВА

Ф.С. ОРИПОВ

Б.Т. РАХИМОВ Х.А. РАСУЛОВ

ПЕИ РУЗИЕВ

С.А. РУЗИБОЕВ

С.А. РУЗИБОЕВ С.А.ГАФФОРОВ

С.Т. ШАТМАНОВ (Кыргызстан)

Ж.Б. САТТАРОВ

Б.Б. САФОЕВ (отв. редактор)

И.А. САТИВАЛДИЕВА

Ш.Т. САЛИМОВ

Д.И. ТУКСАНОВА

М.М. ТАДЖИЕВ

А.Ж. ХАМРАЕВ

Б.Б. ХАСАНОВ

Д.А. ХАСАНОВА

Б.3. ХАМДАМОВ

А.М. ШАМСИЕВ А.К. ШАДМАНОВ

Н.Ж. ЭРМАТОВ

Б.Б. ЕРГАШЕВ

Н.Ш. ЕРГАШЕВ

И.Р. ЮЛДАШЕВ

Д.Х. ЮЛДАШЕВА

А.С. ЮСУПОВ

Ш.Ш. ЯРИКУЛОВ

М.Ш. ХАКИМОВ

Д.О. ИВАНОВ (Россия)

K.A. ЕГЕЗАРЯН (Россия) DONG IINCHENG (Китай)

КУЗАКОВ В.Е. (Россия)

Я. МЕЙЕРНИК (Словакия)

В.А. МИТИШ (Россия)

В И. ПРИМАКОВ (Беларусь)

О.В. ПЕШИКОВ (Россия)

А.А. ПОТАПОВ (Россия)

А.А. ТЕПЛОВ (Россия)

Т.Ш. ШАРМАНОВ (Казахстан)

А.А. ЩЕГОЛОВ (Россия)

С.Н ГУСЕЙНОВА (Азарбайджан)

Prof. Dr. KURBANHAN MUSLUMOV(Azerbaijan) Prof. Dr. DENIZ UYAK (Germany)

## ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН НОВЫЙ ДЕНЬ В МЕДИЦИНЕ NEW DAY IN MEDICINE

Илмий-рефератив, маънавий-маърифий журнал Научно-реферативный, духовно-просветительский журнал

#### УЧРЕЛИТЕЛИ:

БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ МЕДИЦИНСКИЙ ИНСТИТУТ ООО «ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН»

Национальный медицинский исследовательский центр хирургии имени А.В. Вишневского является генеральным научно-практическим консультантом редакции

Журнал был включен в список журнальных изданий, рецензируемых Высшей Аттестационной Комиссией Республики Узбекистан (Протокол № 201/03 от 30.12.2013 г.)

#### РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ:

М.М. АБДУРАХМАНОВ (Бухара)

Г.Ж. ЖАРЫЛКАСЫНОВА (Бухара)

А.Ш. ИНОЯТОВ (Ташкент)

Г.А. ИХТИЁРОВА (Бухара)

Ш.И. КАРИМОВ (Ташкент)

У.К. КАЮМОВ (Тошкент)

Ш.И. НАВРУЗОВА (Бухара)

А.А. НОСИРОВ (Ташкент)

А.Р. ОБЛОКУЛОВ (Бухара)

Б.Т. ОДИЛОВА (Ташкент)

Ш.Т. УРАКОВ (Бухара)

www.bsmi.uz

Тел: +99890 8061882

9 (83)

2025

https://newdaymedicine.com E: ndmuz@mail.ru *CeHmябрь* 

Received: 20.08.2025, Accepted: 06.09.2025, Published: 10.09.2025

#### UOK 619:636.32/38-053.31

#### KALAMUSHCHALAR CHUQUR BOYIN LIMFA TUGUNLARINING MORFOLOGIYASI

Z.A. Axadova <a href="https://orcid.org/0009-0000-9538-4243">https://orcid.org/0009-0000-9538-4243</a>
E-mail: axadovaz01@gmail.com

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti, 100109 Toshkent, Oʻzbekiston Farobiy koʻchasi 2, Tel: +998781507825 E-mail: info@tdmu.uz

#### ✓ Rezyume

Ushbu maqolada ona-kalamushlarni homiladorlik paytida har xil ratsion bilan oziqlantirishda, bola kalamushlar boʻyin soha chuqur joylashgan limfa tugunlarining hujayralar va toʻqima elementlaridagi oʻzgarishlar dinamikasi oʻrganilgan. Odatiy ratsion bilan oziqlantirilgan ona kalamushlardan tugʻilgan bola kalamushchalar boʻyin soha chuqur joylashgan limfa tugunlarda postnatal davrning erta davrlarida barcha toʻqima tuzilmalarining takomil topish darajasi morfologik jihatdan tavsiflangan. c. Oqsili kam ratsion bilan oziqlantirilgan ona kalamushlardan tugʻilgan bola kalamushchalar boʻyin soha chuqur limfa tugunlari toʻqima tuzilmalaridan limfotsitar morfofunksional maydonlarda limfoid hujayralarning kamayishi, unga javoban retikulyar stroma tuzilmalari proliferatsiyalanib koʻpayishi isbotlangan.

Kalit soʻzlar: limfa tugun, postnatal davr, morfologiya, limfostitlar, limfoid hujayra.

#### МОРФОЛОГИЧЕСКАЯ И ГИСТОЛОГИЧЕСКАЯ ДИНАМИКА ГЛУБОКИХ ШЕЙНЫХ ЛИМФАТИЧЕСКИХ УЗЛОВ КРЫСЯТ

*Ахадова З.А. <u>https://orcid.org/0009-0000-9538-4243</u> E-mail: <u>axadovaz01@gmail.com</u>* 

Ташкентский государственный медицинский университет, 100109 Ташкент, Узбекистан, ул. Фаробия, 2, Тел: +998781507825 E-mail: info@tdmu.uz

#### √ Резюме


В данной статье изучена динамика изменений в клетках и тканевых элементах лимфатических узлов, расположенных глубоко в шейном отделе, при кормлении матерей-крыс разнообразным рационом во время беременности. Детеныши крыс, рожденные от матерей-крыс, которых кормили обычной диетой. шея область расположена глубоко в лимфатических узлах морфологически описана степень сложного нахождения всех тканевых структур на ранних сроках послеродового периода. Детеныши крыс, рожденные от матерей-крыс, которых кормили диетой с низким содержанием белка во время беременности, в постнатальной динамике шея область глубокий лимфатический узел было обосновано, что улучшение тканевых структур резко отличается от лимфатических узлов крыс, которых кормили дошной с низким рационом. Детеныши крыс, рожденные от матерей крыс, которых кормили диетой с низким содержанием белка, шея область глубокий лимфатический узел из тканевых структур лимфоцитарный в морфофункциональных областях было показано, что лимфоидные клетки уменьшаются, в ответ на что структуры ретикулярной стромы пролиферируют и размножаются.

Ключевые слова: лимфоузел, послеродовой период, морфология, лимфоцыти лимфоидная клетка.

## MORPHOLOGICAL AND HISTOLOGICAL DYNAMICS OF DEEP CERVICAL LYMPH NODES IN BABY RATS

Z.A. Axadova <a href="https://orcid.org/0009-0000-9538-4243">https://orcid.org/0009-0000-9538-4243</a>
E-mail: axadovaz01@gmail.com

Tashkent State Medical University, 100109 Tashkent, Uzbekistan, 2 Farobiy Street, Tel: +998781507825 E-mail: info@tdmu.uz



#### ✓ Resume

This article examines the dynamics of changes in the cells and tissue elements of lymph nodes located deep in the cervical region when feeding rat mothers with a varied diet during pregnancy. Baby rats born to rat mothers who were fed a regular diet.the neck area is located deep in the lymph nodes. Morphologically, the degree of difficult finding of all tissue structures in the early stages of the postpartum period is described. Baby rats born to rat mothers who were fed a low-protein diet during pregnancy, in the postnatal dynamics of the neck area deep lymph node, it was proved that the improvement of tissue structures is sharply different from the lymph nodes of rats fed a regular diet. Baby rats born to mothers of rats fed a low-protein diet, neck area deep lymph node of tissue structures lymphocytic in morphofunctional areas it has been shown that lymphoid cells decrease, in response to which the structures of the reticular stroma proliferate and multiply.

Key words: lymph node, postpartum period, morphology, lymphostitis, lymphoid cell.

#### Relevance

L a'zolarning morfofunksional oʻziga xos jihatlari boʻyicha fundamental savollarni yoshga qarab oʻrganish gipoteza darajasida qolmoqda. Bu a'zolarning immun tizimi tarkibiga kirganligi sababli, ularning rivojlanishi, takomil topishidagi morfogenetik mexanizmlari boʻyicha savollar ochiq qolmoqda [8,9].

Boʻyin sohada chuqur joylashgan limfa tugunlarini oziqlanishning xususiyatlariga bogʻliq holda oʻrganish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bunda, boʻyin sohasi chuqur joylashgan limfa tugunlarning drenajlash effektivligi bir tomondan markaziy nerv tizimi, ikkinchi tomondan immunnokompetent funksiyalarning toʻliq va yetarli darajada ishlashi uchun muhim hisoblanadi. Nimaga deganda, ogʻiz boʻshligʻi tashqi muhit bilan bevosita aloqada boʻlganligidan, doimiy holda antigenlar ta'siri yuz berganligidan, ogʻiz boʻshligʻida toʻliq va yetarli darajada immun reaksiya yuz berishi uchun boʻyinning chuqur joylashgan limfa tugunlari oziqa moddalar bilan yetarli darajada ta'minlanib turishi zarur hisoblanadi.

Organizmga har qanday tashqi va ichki omillar ta'siriga javob beradigan, oʻzini-oʻzi boshqaradigan, maxsuslashgan funksiyaga ega tizim, bu – limfa tizimi hisoblanadi [1,2,3,4]. Xorijiy olim Yu.I.Borodinning (1994;2016) konsepsiyasi boʻyicha limfatik tizimning limfa tugunlari va magistral timfa tomirlari bir butun hamjixatlikda ishlaydi. Limfa tugunlar bir qator vazifalarni bajarish bilan bir qatorda immun tizim a'zolari hisoblanadi. Inson tug'ulgandan boshlab, bir umr dayomida tashqi muhit omillari bilan tutashib, himoya mexanizmlarini ishlab chiqaradi, shuning uchun limfa tugunlar organizmning muhim himoya a'zolari hisoblanadi [3,4]. Limfa tugunlar organizmning ichki muhitini ortiqcha suv, oqsillar, yogʻlar, bakteriyalar, parchalangan hujayra mahsilotlaridan ozod qilib, limfotsitlar zaxirasini koʻpaytirib, ichki gomeostazni va immunitetni saqlab turadi. Aksariyat olimlar organizmning nevroendokrin va reproduktiv tizimlari qatorida limfatik tizimni ham gomeostazning bosh kompetenti deb hisoblaydi (Yefremov A.V., 2016; Antonov A.R., 2018; Yakobson G.S., 2018). Bir yoki bir nechta limfa tugunlar kattalashishi insonning vrachga murajaotiga sabab boʻlib, bir qator kasalliklar, jumladan oʻsmali kasalliklarni barvaqt aniqlashga yordam beradi. Muammoning dolzarbligini har xil genezli limfa tugunlarning kattalashishi 59,3%-ni tashkil qiladigan sabablari noma'lum limfadenit belgilagani uchun, ushbu mummoni har tomonlama o'rganishni taqoza giladi (A.K.Xanov 1999).

Shu bilan birga, oxirgi paytlarda ham tugʻma, ham orttirilgan immun tanqisliklari uchrash darajasi oshib borayotganligi va ularga bogʻliq holda onkologik va infeksion kasalliklarning koʻpayishi, bu yoʻnalishdagi ilmiy tadqiqotlarni kuchaytirishni talab qiladi. Organizmning barcha a'zo va tizimlari shakllanishida oziqlanish muhim ahamiyatga ega. Oxirgi yillarda ham kattalar, ham bolalar organizmida oqsillar, vitaminlar, makro- va mikroelementlar yetishmasligi kuzatilib, bularga bogʻliq holda rivojlanadigan kasalliklar darajasi oshmoqda. Bosh sohasi, bosh miya va ogʻiz boʻshligʻi a'zolarini drenajlaydigan boʻyinning chuqur joylashgan limfa tugunlarini oziqlanishning xususiyatlariga bogʻliq holda oʻrganish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bunda, boʻyin sohasi chuqur joylashgan limfa tugunlarning drenajlash effektivligi bir tomondan markaziy nerv tizimi, ikkinchi tomondan immunnokompetent funksiyalarning toʻliq va yetarli darajada ishlashi uchun muhim hisoblanadi. Nimaga deganda, ogʻiz boʻshligʻi tashqi muhit bilan bevosita aloqada boʻlganligidan, doimiy holda antigenlar ta'siri yuz berganligidan, ogʻiz boʻshligʻida toʻliq va yetarli darajada immun

reaksiya yuz berishi uchun boʻyinning chuqur joylashgan limfa tugunlari oziqa moddalar bilan yetarli darajada ta'minlanib turishi zarur hisoblanadi. Ta'kidlash kerakki, bizga tanish ilmiy adabiyotlarda bolalar organizmi boʻyin sohasida chuqur joylashgan limfa tugunlarining morfofunksional holati, klinik-laborator koʻrsatgichlari onalarning homiladorlik davrida oqsillar yetishmasligi yuz bergan paytda toʻliq oʻrganilmagan. Ona organizmining oqsili kam ratsion bilan oziqlanishi boʻyin soha limfa tugunlari morfofunksional holatiga ta'sirini oʻrganish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarni inobatga olgan holda aytish mumkinki, bo'yin soha limfa tugunlarining anatomiya, topografiya, gistologiya va patologiyasini to'liq holda yoritgan ishlar juda kamchilikni tashkil qiladi. Agar bunday ishlar yetarli darajada bo'lgan edi, ulardagi ma'lumotlar bo'yin soha kasalliklarini tushinib olishda katta ahamiyatga ega bo'lar edi [5,6,8].

Boʻyin soha limfa tugunlarining kattalashishi koʻpincha yalligʻlanish oqibatida yuz beradi. Sababi koʻpincha yuz-jagʻ va LOR a'zolarining yalligʻlanishi, kam hollarda mahalliy sabab, ya'ni terining frunkul, karbunkul va yiringlagan epidermal kistalar boʻlishi mumkin (P.Yu. Kozlov, 2021). Boʻyin limfa tugunlari ba'zida spetsifik qoʻzgʻatuvchilar tushishi oqibatida yuz beradi, ulardan sil, zaxim, brutsellez, oʻlat, aktinomikoz va VICh infeksiyalari koʻp uchraydi. Boʻyin soha limfa tugunlari yalligʻlanishining koʻp uchraydigan sabablari quyidagilar hisoblanadi: bakterial va virusli infeksion kasalliklar, qalqonsimon bez kasalliklari, xavfsiz va xavfli limfomalar, soʻlak bezlari kasalliklari, biriktiruvchi toʻqima kasalliklari, va boshqa yalligʻlanishli kasalliklar. Virusli kasalliklarda limfa tugunlar tez kattalashadi, ogʻriq beradi va qisqa vaqt ichida oʻz-oʻzidan kichiklashadi. Bakterial infeksiyala esa limfa tugunda har xil oʻzgarishlar kuzatiladi, kattalashib, qattiqlashib, ba'zida yiring bilan toʻladi.

#### Tadqiqot maqsadi va vazifalari:

Ona-kalamushlarni homiladorlik paytida har xil ratsion bilan oziqlantishda, bola kalamushlar bo'yin soha chuqur joylashgan limfa tugunlarining hujayralar va to'qima elementlaridagi o'zgarishlar dinamikasini aniqlash. Homiladorlik paytida odatiy ratsion bilan oziqlantirilgan ona-kalamushlardan tug'ilgan bola kalamushlarning 4 oylik davrida bo'yin soha chuqur joylashgan limfa tugunlar to'qima elementlarining tuzilishini o'rganish.

Oqsilsiz ratsion bilan boqilgan ona kalamushlardan tug'ilgan bola kalamushlar postnatal davr dinamikasida bo'yin soha chuqur joylashgan limfa tugunlar to'qima elementlarining morfometrik ko'rsatgichlarini o'rganish.

#### Material va foydalanilgan usullar

Tadqiqot Vistar porodali, infeksiyaga yuqori darajali chidamli va organizmi struktur-funksional koʻrsatgichlari past individual xususiyatlarga ega kalamushlarda oʻtkazilgan (Leyn-Petter U., 1964; Zapadnyuk I.P.,1974). Ishda vazni 200-250g. boʻlgan ona kalamushlar va 4 oylik bola kalamushlar boʻlgan. Tajridalarning oʻtkazilish tartibi quyidagi jadvalda keltirilgan.

Gistologik tekshiruv usullari. Gistologik va elektron mikroskopik tekshiruvga har bir guruhdan 7-tadan kalamushchalardan boʻyin sohasi chuqur joylashgan limfa tugunlar olindi. Yorugʻlik mikroskopiya uchun limfa tugunlar 10%li neytrallangan formalin eritmasida qotirildi, 3-4 soat oqar suvda yuvilgandan keyin, konsentratsiyasi oshib boruvchi spirtlarda va xloroformda suvi qochirilib, parafin quyilib gʻishchalar tayyorlandi (Volkova O.Ye., Yeletskiy Yu.K.). Parafin gʻishchalardan rotorli mikrotomda olingan 5-6 mkm qalinlikdagi kesmalarda limfa tugun toʻqimasi Mayer usulida, ya'ni gematoksilin va eozinda boʻyalib, kanada balzamida yuzasi yopildi. Limfa tugunlar boʻlaklari 1%li osmiy 4 oksidida qotirilib, konsentratsiyasi oshib boruvchi spirtlarda suvsizlantirilib, epon mumiga quyildi va bloklar tayyorlandi. Ushbu bloklardan ultramikrotomda yarim yupqa kesmalar olinib metilin koʻki bilan boʻyaldi [7,8,9,10,11,12].

Tayyorlangan parafinli va eponli bloklardan tayyorlangan gistologik va yarim yupqa kesmalardan foydalanib morfometrik tekshiruvlar oʻtkazildi (Avtandilov G.G., 1984, Nepomnyaoʻix L.M., Lushnikova Ye.L., Shkurupiy V.A., Samoylov K.O.2012; Vereoʻagina G.N., 2014).


Mikroskopik oʻrganishda limfa tugunlar tashqi pardasining zichligi, kapsula osti sinusi, trabeklalari, birlamchi va ikkilamchi limfoid follikulalar, magʻiz qavat sinuslari, poʻstloq qavati tugunlari, parakortikal maydon magʻiz qavati yumshoq tasmalarining gistotopografik holati oʻrganildi. Mikroskop okulyariga oʻrnatilgan 196-ta nuqtadan iborat yopiq test tizimi yordamida poʻstloq-magʻiz indeksi (PMI) hisoblandi (Borodin Yu.I., Grigorev V.N., 2006). Limfa tugunning barcha morfofunksional maydonlari hujayraviy tarkibi yopiq test yordamida 900 marta kattalashtirilgan holatda 6400 mkm maydonda sanaldi.

Qoʻlga kiritilgan miqdoriy ma'lumotlarga statistik ishlov berishda variatsion statistikaning standart usullaridan foydalanib, St'yudent kriteriysi – t, ma'lumotlarning ishonchlilik darajasini Excel-2003 tizimida Pentium-IV kompyuterida ishlov berildi. Ishonchlilik darajasi R≤0,05 dan kam hollarda hisobga olindi.

#### Tadqiqot natijalari va tahlillar


Homiladorlik paytida oqsili kam ratsion bilan oziqlantirilgan ona-kalamushlardan tugʻilgan bola kalamushlar boʻyin soha chuqur joylashgan limfa tugunlar strukturaviy tuzilishining oʻziga xosligi.

Oqsili kam ratsion bilan oziqlantirilgan ona kalamushlardan tugʻilgan bola kalamushlarning 4 oylik davrida boʻyin soha chuqur joylashgan limfa tugunlar gistologik jihatdan oʻrganilganda quyidagi ma'lumotlar olindi. Tashqi pardasi tarkibida joylashgan biriktiruvchi va retikulyar toʻqima hujayralari takomillashib, soni kamayib, yetilgan toʻqimaga aylanganligi sababli nisbatan yupqalashganligi aniqlandi. Subkapsulyar sinusi ham takomillashib, bir tekisda boʻshliq paydo qilganligi uning ostidagi limfa tugun toʻqimasidagi birlamchi limfoid follikulalar nisbatan yirikligi, oldingi davrlarga nisbatan keng joyni egallaganligi, tarkibidagi hujayralar ham yetilgan tuzilishga egaligi aniqlanadi (1-rasm).




**Rasm -1.** 4 oylik kalamush limfa tugun birlamchi follikulasi nisbatan yirikligi, hujayralari takomil topgan darajadaligi aniqlanadi. Boʻyoq: G-E. Kat: 10x20.

4 oylik kalamush limfa tuguni parakortikal maydoni toʻqimasini metilin koʻki bilan boʻyalgan kesmada oʻrganish shuni koʻrsatdiki, ushbu maydondagi postkapillyar venula devorinozik tuzilishga egaligi, endoteliy va peritsit hujayralari proliferativ faollik darajasida ekanligi aniqlanadi (2-rasm). Venula atrofida hujayralari koʻpaygan retikulyar toʻri va uning orasida asosan oʻrta kattalikdagi va kichik limfotsitlar oʻrin egallaganligi va toʻqima tarkibida degeneratsiyaga uchragan hujayralar mavjudligi kuzatiladi.




Rasm - 2. 4 oylik kalamush limfa tuguni parakortikal maydon, retikulyar stromasi proliferatsiyalangan, limfotsitlar miqdori kamaygan. Boʻyoq: Metilen koʻki. Kat: 10x100.


Limfa tugun po'stloq qavati to'qimasini o'rganish shuni ko'rsatdiki, birlamchi va ikkilamchi limfoid follikulalar nisbatan kichikligi, ularning atrofidagi limfotsitar xalqasi hujayralari nisbatan zich joylashganligi kuzatiladi. Parakortikal maydon nisbatan kenggayganligi, tarkibida retikulyar stromasining retikulyar hujayralari va tolalari biroz koʻpayganligi, ularning orasidagi limfotsitlar siyraklashib, mayda-mayda toʻplamlar koʻrinishida joylashganligi aniqlanadi.



Rasm - 3. 4 oylik kalamush limfa tuguni po'stloq qavati, follikulalari kichiklashgan, parakortikal maydon kengaygan. Bo'yoq: G-E. Kat: 10x10.

Limfa tugun magʻiz qavati sinuslari bir xil darajada kengaygan, boʻshligʻida makrofaglar va limfotsitlar miqdori keskin koʻpaygan. Yumshoq tasmalari biroz yupqalashgan, tarkibidagi zichlashgan, undagi limfotsitlar yadrolari giperxromaziyalanib, hujayralar joylanishi toʻqlashganligi aniqlanadi (3-rasm). Limfa tugun magʻiz qavat metilen koʻki bilan boʻyalgan yarim yupqa kesmalarini mikroskopik jihatdan oʻrganganimizda quyidagi ma'lumotlar olindi. Sinuslar devoriyaxshi takomil topgan retikulyar va biriktiruvchi toʻqimadan tashkil topganligi, undagi hujayralari yaxshi differensiallangan, atrofida tolalari koʻp toʻplanganligi bilan namoyon boʻlgan (4-rasm, 5-rasm). Sinuslar bo'shlig'ida makrofaglar, monotsitlar, hujayra fragmentlari, o'rta kattalikdagi va kichik limfotsitlar joylashganligi aniqlanadi.





Rasm - 4-5. 4 oylik kalamush limfa tuguni magʻiz qavati sinusi devori takomil topgan retikulyar toʻqimadan, boʻshligʻida makrofag, monotsit, limfotsitlar oʻrin egallagan. Boʻyoq: Metilen ko'ki. Kat: 10x100.

#### Xulosa

Oqsili kam ratsion bilan oziqlantirilgan ona kalamushlardan tugʻilgan bola kalamushlarning 4 oylik davrida boʻyin soha chuqur joylashgan limfa tugunlar gistologik jihatdan oʻrganilganda quyidagi ma'lumotlar olindi:

- 1. Tashqi pardasi tarkibida joylashgan biriktiruvchi va retikulyar toʻqima hujayralari takomillashib, soni kamayib, yetilgan toʻqimaga aylanganligi sababli nisbatan yupqalashganligi aniglandi.
- 2. Subkapsulyar sinusi ham takomillashib, bir tekisda boʻshliq paydo qilganligi uning ostidagi limfa tugun toʻqimasidagi birlamchi limfoid follikulalar nisbatan yirikligi, oldingi davrlarga nisbatan keng joyni egallaganligi, tarkibidagi hujayralar ham yetilgan tuzilishga egaligi aniqlandi.
- 3. Limfa tugun po'stloq qavati to'qimasini o'rganish shuni ko'rsatdiki, birlamchi va ikkilamchi limfoid follikulalar nisbatan kichikligi, ularning atrofidagi limfotsitar xalqasi hujayralari nisbatan zich joylashganligi kuzatildi.
- 4. Parakortikal maydon nisbatan kenggayganligi, tarkibida retikulyar stromasining retikulyar hujayralari va tolalari biroz koʻpayganligi, ularning orasidagi limfotsitlar siyraklashib, maydamayda toʻplamlar koʻrinishida joylashganligi aniqlandi.
- 5. Limfa tugun magʻiz qavati sinuslari bir xil darajada kengaygan, boʻshligʻida makrofaglar va limfotsitlar miqdori keskin koʻpaygan.
- 6. Yumshoq tasmalari biroz yupqalashgan, tarkibidagi hujayralar joylanishi zichlashgan, undagi limfotsitlar yadrolari giperxromaziyalanib, toʻqlashganligi aniqlandi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1. Бородин Ю.И., Григорьев В.Н. Лимфатический узел при циркуляторных нарушениях // Новосибирск: Наука, Сиб. отделение. 1986; 286 стр.
- 2. Бородин Ю.И., Горчакова О.В., Горчаков В.Н. Периферические лимфоидные структуры: образование и функция. // Морфология. 2016;(4):90-96.
- Поддубная И.В., «Лечение индолентных неходжкинских лимфом», // Практическая 3. онкология, 2004;5(3).
- Сапин М. Р., Этинген Л. Е. Иммунная система человека. / М.: Медицина, 1996; 304 стр. 4.
- 5. Сапин М.Р. Лимфатическая система и ее роль в иммунных процессах/Морфология: Материалы докладов XI конгресса международной ассоциации морфологов. г. Самара, 29-31 мая 2012 г. – СПб, 2012;3(141):139.
- 6. Bartlett P. C. Current developments in the epidemiology and control of enzootic bovine leukosis as caused by bovine leukemia virus [Электронный ресурс]/ Р. С. Bartlett, V. J. Ruggiero, H. C. Hutchinson et al. // Pathogens. 2020;9(12):1058.
- Bennett JE, Dolin R, Blaser MJ, eds. Mandell, Douglas, and Bennett's Principles and Practice 7. of Infectious Diseases. 8th ed. Philadelphia: Elsevier; 2015; 3577 pp.
- 8. Bento D.C., Jones E., Junaid S., Tull J., Williams G.T., Godkin A., et al. High endothelial venules are rare in colorectal cancers but accumulate in extra-tumoral areas with disease progression. // Oncoimmunology. 2015;4(3):e974374.
- 9. Saidova A. A. Bovine stem cells: methodology and applications / A. A. Saidova // SOJ Veterinary Sciences. 2019;5(1):1-9.
- Song I.H., Heo S.-H., Bang W.S., Park H.S., Park I.A., Kim Y.A., et al. Predictive value of 10. tertiary lymphoid structures assessed by high endothelial venule counts in the neoadjuvant setting of triple-negative breast cancer. // Cancer Res Treat. 2017;49(2):399-407.
- 11. Turner, V. M. Influence of ageing on the microarchitecture of the spleen and lymph nodes [Электронный ресурс] / V. M. Turner, N. A. Mabbott // Biogerontology. 2017;18(5):723-
- 12. García-Hernández M.L., Uribe-Uribe N.O., Espinosa-González R., Kast W.M., Khader S.A., Rangel-Moreno J. A unique cellular and molecular microenvironment is present in tertiary lymphoid organs of patients with spontaneous prostate cancer regression. // Front Immunol. 2017;8:563.

Qabul qilingan sana 20.08.2025

